

TARBIYASI QIYIN BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O.I.Yadgarova

Ilmiy rahbar. SamDCHTI dotsenti v.v.b.p.f.f.d (PHD)

Abdujalilova Sevinch

SamDCHTI Ingliz tili fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan mahalla, oila, ta'lim muassasalari, xuquqni muhofaza qilish tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy pedagogik kadrlar, umuman olganda butun bir jamiyat shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha vakillarning hamjihatlik bilan olib boradigan ishlaridagina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Mazkur maqolada tarbiyasi og'ir bolalarning bunday holga kelishiga nimalar sabab bo'lishi, qanday omillar ta'sir ko'rsatishi haqida, shuningdek, ularga, jamiki bolalar bilan ishlashda kamchiliklarni tuzatish va muvaffaqiyatga erishish uchun bir nechta ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ilmiy pedagogik kadrlar, giyohvandlik, psixologiya, asotsial axloq faktlari, tug'ma mehanizmlar, klassifikatsiya, stereotip, obektiv tavsiya, individ, o'tish davri, krizis, intensiv, emotsional holat, funktsiya, irsiyat, nevro'z, nevrasteniya, psixozisteriya, rag'batlantirish metodi, rahm-shavqat pedagogikasi, psixoterapevtik ta'sir metodi, individual.

Аннотация. Известно, что духовно-нравственным воспитанием молодеж занимаются махалля, семья, образовательные учреждения, правоохранительные организации, средства массовой информации, научно-педагогические кадры, общество в целом. Процесс воспитания может дать свои положительные результаты только в слаженной работе всех представителей. В этой статье рассказывается о том, что вызывает это состояние у детей с тяжелым воспитанием, какие факторы влияют на них, а также дается несколько рекомендаций по исправлению недостатков и достижению успеха в работе с детьми.

Ключевые слова: Научные педагогические кадры, наркомания, психология, факты асоциальной этики, врожденные механизмы, классификация, стереотип, объективная рекомендация, индивид, переходный период, кризис, интенсивность, эмоциональное состояние, функция, наследственность, невроз, неврастения, психозистерия, метод стимуляции, педагогика сострадания, метод психотерапевтического воздействия, индивидуальный.

Annotasion. It is noun that the neighbourhood, the family, educational institutions, law enforcement organizations, the media, scientific and pedagogical personnel, and society as a whole are engaged in the spiritual and moral education of young people. The process of education can give positive results only in the

coordinated work of all representatives. This article describes what causes this condition in children with difficult upbringing, what factors affect them, and there are also several recommendations for correcting shortcomings achieving success in working with children.

Keywords: Scientific teaching staff, drug addiction, psychology, facts of asocial ethics, innate mechanisms, classification, stereotype, objective recommendation, individual, transition period, crisis, intensity, emotional state, function, heredity, neurosis, neurasthenia, psychohistory, method of stimulation, pedagogy of compassion, method of psychotherapeutic influence, individual

Ta'lim sohasi shiddat bilan rivojlanib isloh etilib ketayotgan bir davrda ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilar tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya, tartib-intizom bor joyda ta'lim tizimini rivoji amalga oshadi. Ta'lim sifati haqida gap ketar ekan, avvalo, bugungi kunda o'smirlik davrida uchraydigan va tez-tez tilga olinib turadigan "Tarbiyasi qiyin" bolalar haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. "Tarbiyasi qiyin" yoki "Og'ir davr" yoki L.S.Vigotskiy ta'rifi bo'yicha aytadigan bo'lsak "Ruhiiy rivojlanishida krizis" davralari ayniqsa o'smir bolalar ruhiy tarbiyasida uchraydigan holat hisoblanadi. Shu o'rinda bu terminlarga batavsil to'xtalib o'tsak.

"Tarbiyasi og'ir bolalar"hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan va afsuski allaqachon ko'nikib ketilgan bu atama ortida nimalar yotadi? Bolalar bog'chasi tarbiyachisi uchun qaysar, injiq, ta'sir ko'rsatuvchi norasmiy bola, militsiya xodimi uchun esa qo'lida ragatka ushlagan bezori. Ota-onalar uchun-chi? Bu atama har qaysisi uchun o'zgacha ma'no kasb etadi. Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ba'zilar xatolarga yo'l qo'yayotgani rost gap. Bilimi sust, dunyoqarashi tor, yosh bo'lishiga qaramay jinoyatga qo'l urgan, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, giyohvandlikka moyil, o'qishga qiziqishi yo'q, "tarbiyasi og'ir" bolalarning borligi juda achinarli va dolzarb muammoli hol. O'zbekiston Respublikasida yuqoridagi masalalar bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda hamda, 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bundan tashqari prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu - yoshlarimizning odob -axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz. Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".[1]

Psixologiya fanida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asotsial axloq faktlarning mazmun-mohiyati tarkibi ham tug'ma mehanizmlar bilan belgilanmaydi. "Tarbiyasi og'ir" yoki "Qiyin" bolalar pedagogik jihatdan qarovsiz qoldirilgan bolalar sanaladi. Ular shaxsining axloqiy jihatdan o'zgarishi pedagogik xatolar oqibatidir. To'g'ri, har qanday bola ham tabiatan qiyindir. Ammo ba'zilar uchun muammo bo'lgan narsa boshqalarga xech qanday qiyinchiliklar

tug'dirmaydi. Shu narsa aniqlandiki, uyda janjal nizolar bo'lmasa, har bir masala xotirjamlik bilan yechilsa, uyda doim tinchlik bo'lsa bu bola uchun juda ham yaxshi ekan. Negaki, bola qattiq uxlaydi, ishtaxasi bo'ladi. Har bir bolada yuzaga keladigan qiyinchiliklar uning go'daklik chog'idan shakllanadi. Ammo, biz kattalar har doim ham buni anglab yetmaymiz. Ba'zilar bola nega yig'lashi, nimaga xarxasha qilayotganini, nimadan iztirob chekayotganini tushunsalar, boshqalar bu narsalar haqida o'ylab ham ko'rishmagan. Ular bolani chalg'itishga urinishadi yoki bu narsaga shunchaki loqaydlarcha beparvo qarab turishadi. Bunday ota-onalar bola his qilayotgan qiyinchiliklarni uqib tushinib ololmagandan so'ng, faqat kichkintoyini o'ziga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirayotganinigina tushinadi xolos. Shundan so'ng bola haqida qiyin, tashvish keltiruvchi, mashaqqatlar yuklovchi, xalaqit beruvchi dastlabki xavotirli, barqaror tasavvurlar paydo bo'ladi. Shu yo'sinda "tarbiyasi og'ir" "xulqi qiyin" bolalar paydo bo'ladi.

Psixologiyada "tarbiyasi og'ir" bolalarning bir nechta klassifikatsiyalari mavjud.

- Birinchi guruh – ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlarga ega bolalar;
- Ikkinchi guruh – irodali bolalarga bo'ysunuvchilar;
- Uchinchi guruh – qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar.

"Tarbiyasi og'ir" bolalar uchun ular yashayotgan sharoit, ular o'qiyotgan jamoa, sinfi va oilasi juda katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bola oila a'zolariga qarab ulg'ayadi, hatti-xarakatlari, xarakter, fe'l-atvori ota-onasi, yaqinlariniki kabi shakllanadi. Bola uchun ota-ona bilan bo'lish, ular bilan doimiy muloqot qilish juda yoqadi, aksincha, ularning yo'qligi bola uchun juda katta fojia, xech bir bola buni yoqtirmaydi. Har bir ota-onaning shirin so'zlari, mehribonliklari, g'amxo'rligini uni yaxshi ko'rishini bildiradigan hatti-xarakatlari katta ahamiyatga ega. Bolaga e'tiborsizlik qilish, uni erkalab suymaslik salbiy oqibatlariga olib keladi. Xulq-atvorning dastlabki shakllari xuddi shu ijtimoiylashuv jarayoni bilan yuzaga keladi.

Tarbiyasi qiyin bolalar xulq-atvori ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liqligi xususida buyuk mutafakkirlar ham o'z fikr mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, Konfutsiy – "eskini o'zlashtirgan, yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" – degan edi.[9] Shu birgina jumla o'zida katta ma'noni aks ettirgan. Har bir inson alohida shaxs, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz, bolalar ham o'ziga xos, xech bir bola bir- birini takrorlamaydi. Bu tabiiy hol, ammo ko'p hollarda kattalar buni unutilib qo'yadi. Bu vaziyatda ular "bolaga mumkin emas", "bola ... bajarishi kerak" kabi so'zlarni ishlatadi.[11] Bu fikr bizni nazdimizda xato fikrdir. Individ hech narsani bajarishga majbur emas, bola tug'iliboq nima xato, nima to'g'ri-yu nima yaxshi yomonligini bilib qolmaydi. Kattalar bola yetarli rivojlanishi uchun sog'lom muhit va shar-sharoit yaratishi juda muhim. Bolani insonlar orasida yashashga o'rgatishi, olomon orasida o'zini qanday tutishi kerakligini o'rgatib borishi va ularning xohish-istaklarini, ishlarini, his-tuyg'ularini tushunishi lozim. Vaqtlar o'tishi bilan, uning o'zi nimalar qilish kerakligini, nimalarga majbur ekanligini, kimning oldida qarzdorligini va bu majburiyatlarini

boshqa kishilarga, o'z ota-onalariga, do'stlariga, shuningdek, o'z farzandlariga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rliqi bilan uzishni tushunib oladi. Umuman olganda, bola jamiyat bilan katta bo'ladi, ulg'ayadi va shaxsga aylanadi. Buning uchun bolani o'z holicha qabul qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uni tushunishga harakat qilish, o'zaro munosabatlar jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydigan, balki, oilada qadriyat hisoblangan o'zaro hurmat, iliqlik va himoyalanganlikni his etishga yordam beradigan usullar bilan bola tarbiyasiga yondashish lozim.

Tadqiqotlarga ko'ra inson fe'l-atvorining 80 foizi 5 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanib bo'lar ekan. O'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari va maktab direktorining o'rin bosarlari seminarida; "kimni qanday belgilariga qarab tarbiyasi og'ir o'quvchi deb hisoblaysiz?" – degan savolga 500ga yaqin tarbiya qilish qiyin bo'lgan belgilar ko'rsatib o'tgan.[2]

"Tarbiyasi og'ir" o'quvchilarning 3ta asosiy guruhi mavjud. Bular quyidagilar:

✓ Birinchi guruh – tarbiyasi og'irligi "o'tish davri"ning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan o'quvchilar.

✓ Ikkinchi guruh – tarbiyasi qiyinligi jismoniy va psixik rivojlanishida chetga chiqish holatlari bilan bog'liq bo'lgan bolalar va o'smirlardir.

✓ Uchinchi guruh – bu tarbiyasi qiyinlik holati pedagogik qarovsizlik bilan belgilanadigan bolalar hisoblanadi.

Birinchi guruh o'tish davridagi o'quvchilardir. Bu davr qizlarda 11-14 yosh, o'g'il bolalarda 12-15 yosh oralig'ida davom etadigan davr.[3] Tarbiyasi va hayotining noqulay sharoitlarida ba'zi bolalar krizisga uchraydi. Yani psixologik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishdagi jiddiy o'zgarishlar davrida jiddiy qiyinchiliklar bo'lishini hammamiz bilamiz. Bu vaqtda bolaning rivojlanishi 2 xususiyat: notekis va intensiv rivojlanishi bilan harakterlanadi.[8] Shuning uchun ham bu davrda bolaning rivojlanishida to'xtalishlar xatto, nomutanosibliklar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, jismoniy rivojlanishdagi o'zgarishlar psixik omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Hamda jismoniy nosog'lom bolalarning emotsional holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarning psixik rivojlanishida og'ishishlar kuzatiladi, psixikaning ayrim funksiyalari noto'g'ri shakllanadi yoki rivojlanishdan ortda qoladi. Masalan: yomon irsiyat, nevro'z, surunkali psixik kasalliklar, nevrasteniya, psixozisteriya xastaligi va hakozi.[10] Bularning hammasi bolaning fe'l-atvorida o'y-hayolga botish, loqayd bo'lib qolish, tajovuskorlik, dag'allik, qo'pollik, urushqoqlik, jizzakilik, beparvolik paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Bunday bolalarning tarbiyasiga yondashuv – kasallikning davolanishi bilan "rahm-shavqat pedagogikasi"ning alohida tadbirlari bilan birga qo'shib olib borish darkor. Uning asosi o'quv va tarbiya jarayonida jazolashdan oldin rag'batlantirish metodining ustun kelishida. Hamda, psixoterapevtik ta'sir metodlari va usullarini qo'llashda kasal bolalarga individual yondashishni o'z ichiga oluvchi davolash pedagogikasidir.

Ikkinchi guruh. Bunday turga kiruvchi bolalar haddan tashqari erta va jadal rivojlangan yoki aqliy jihatdan rivojlanmay qolgan bolalar. Shuningdek, jismoniy majruh va mayib, tanasidagi turli organlarning rivojlanishida kamchiliklari bor bolalar ham kiradi.

Uchunchi guruh. Bu tipdagi bolalarning ongida fe'l-atvorida emotsional-irodaviy chetga chiqish pedagogik sabablar bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik qarovsizlik belgilari; ongidagi chetga chiqish asosiy hayotiy tushunchalarni, iqtisodiy, siyosiy, estetik, axloqiy va boshqa kategoriyalarni noto'g'ri tushunish, baholashning buzilgan me'yorlari bilan harakterlanadi.

Ta'lim muassasasida tarbiyasi og'ir bolalar bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish muhim. Mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish, nafaqat maktabda balki, mahallada ham, bolaning qiziqadigan mashg'uloti bilan bandligini ta'minlash, har bir o'quvchining oilaviy sharoiti bilan birga uning psixik va fizik rivojlanib borishini kuzatish, maktab psixologi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir bolalarning psixik holatlarini kuzatib borish kabi maslahatlar tavsiya qilinadi.

Har bir o'zbek oilasida tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiyaning istiqolol va kundalik rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan samarali foydalanish o'ziga xos mahorat talab qiladi, negaki uning ildizi qadim xalqimiz an'analariga borib taqaladi. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini kamol toptirishda muhim ro'l o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".[4] Yosh avlod tarbiyasida xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, milliy ruhiyat, umuminsoniy fazilatlar yetakchi o'rin egallamog'i lozim. Tarbiya insondagi iste'dod va qobiliyatlarni rivojlantiradi lekin ularni yaratmaydi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan tarbiya esa tajriba, amaliy ish bilan bo'ladi. Tarbiyali, ilmi, bilimli bolalar bizning kelajagimiz poydevori. Zero, barcha kashfiyotlar ichida eng chiroylisi yaxshi tarbiya olgan boladir.

Xulosa qilib shuni aytish aytish mumkinki, mamlakat tarqaqiyoti bevosita ta'lim rivojiga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim taraqqiyotini yanada rivojlantirishda uning o'quvchilari tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Yuqorida aytganimizdek bola tug'ilganda tarbiyasi qiyin bo'lib tug'ilmaydi. Undagi xulq-atvorning shakllanishida muhit, ta'lim-tarbiya asosiy omlillardan hisoblanadi. Har bir farzand tarbiyasida jamiyatning ro'li juda katta. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoilashuvga erishgan bo'ladi. Bu jumlar bekorga aytilmagan. Aziz ota-onalar o'z avlodlarimiz taqdiriga befarq bo'lmaylik. "Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas!"[5]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyevning 2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni
2. Burxonova M.F Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi. Tarbiyasi og'ir bo'lgan bolalar bilan ishlash usullari.

-
- “Conference of natureland and applied sciences in scientific innovative research”
3. G'oziev. E. Umumiy psixologiya. 2 kitob. Toshkent “Universitet” 2002
 4. Sa'diy Sheroziyni “Guliston” Toshkent 2008
 5. Shukurova.B. “Yangi davr hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari”
“O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar “ Respublikasi ilmiy konferensiyasi
 6. O.I.Yadgarova, & X.Shirinboyeva. (2023). BOLALARDAGI DIQQAT JARAYONING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARDAGI KUZATILADIGAN DIQQAT BUZILISHLARI. Journal of Integrated Education and Research, 2(12), 59–62.
 7. O.I.Yadgarova, & Bobomurodova Marjona. (2023). SHAXSDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHNING AHAMIYATLI JIHATLARI. Journal of Integrated Education and Research, 2(12), 68–71.
 8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7217546>
 9. <http://fayllar.org.tarbiyasi-qiyin-o'quvchilar-bilan-ishlash-usullari>
 - 10.<https://images.app.goo.gl/LBYvwmpKcDeQR7DV6>
 - 11.<https://azkurs.org/gumanitar-fanlar-v2.html?page=96>